

TOG'AY MURODNING "OT KISHNAGAN OQSHOM" QISSASIDA MILLIYLIK MASALASI TAHLILI

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti O'zbek
tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

Ung'alova Mashxura Akmal qizi

*Ilmiy rahbar: O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini
assistenti Pardayev Sirojiddin Shokir o'g'li*

Annotatsiya. Ushbu maqolada adabiyotimizni yorqin ijodi orqali yuksaltirishga o'z hissasini qo'shgan adibimiz Tog'ay Murodning "Ot kishnagan oqshom" qissasida o'zbek millatiga xos bo'lган an'analar, qadriyatlar haqida fikr yuritildi. Milliylik xalqning turmush tarzida yaqqol ko'zga tashlanib turadigan narsa va hodisalardir. Tog'ay Murod asarlarida bularning original namunalarini ko'rishimiz mumkin.

Kalit so'zlar. "Ot kishnagan oqshom", xalq turmush tarzi, milliylik, ko'pkari, Surxondaryo vohasi.

O'zbek adabiyotida novator yozuvchi deya sharaflangan ulug' adiblarimizdan biri bu - yangilik yaratuvchi ijodkor Tog'ay Muroddir.

Tog'ay Murodning qay bir asarini, qissalarini o'qisak ulardagi har bir so'zda o'zbekona milliylik o'z ifodasini topgan. Yozuvchining har bir asarini o'qisak qadriyat aslida nima, milliylik deganda biz nimani tushunmog'imiz kerakligini har bir asarini o'qib unga javob topa olamiz. Tog'ay Murodning asarlarini o'qigan har bir kitobxon uni huddi ko'z o'ngida namoyon bo'layotgandek jonli his eta oladi. Buning sababi, ya'ni yozuvchining har bir asari o'qishli va o'zining muhlislariga egaligiga sabab, yozuvchi har bir asarida yoritib bergen voqealarni avval o'z boshidan o'tkazgan va his etgan. Shuning uchun ham yozuvchining har bir asari haqiqiy tirik asarlardir.

Yozuvchining asarlari haqiqiy chinakam yetuk asar bo'lishining sababi bu voqealarni yozuvchi o'z boshidan kechirgan va uni asar qilib qog'ozga tushirgan. Inson o'zi his qila olmagan voqeani o'zgaga his qildira olmaydi.

Yozuvchi bu asarlarni o'zi his etgan va o'zgalarga ham tushunarli bo'lishiga muvaffaq bo'lgan.

Tog'ay Murod "Ot kishnagan oqshom" asarini yozishdan oldin Surxon hayoti haqida o'z tajribalariga tayangan, kerak bo'lsa ot boqib unga mehr bergen. Shuning natijasida chinakam hayotiy asar dunyoga kelgan. Har bir yaratgan asarlarida avval o'zi ijod mahsuliga aylangan va yangi bir asarlar paydo bo'lgan. Tog'ay Murodning "Ot kishnagan oqshom" asarida asl o'zbekning sodda va samimiyligi Ziyodulla chavandoz obrazi orqali yoritib berilgan. Asar oxirida Ziyodulla chavandozga inson-insonga xiyonat qiladi, [1:164] ammo shunday vaziyatda ham Tarlon o'z egasiga sodiq

do'stligicha qoladi. Ziyodulla chavandoz Tarlonga huddi insonga gapirgandek muomala qiladi, ular bir-birini shunday tushunadi. Ya'ni sen mening ukam jigarimsan sen mening akamsan deya unga o'z mehrini ifoda etadi. Xalq Ziyodulla chavandozni kal deya [1:15] muomala qilganida, Tarlon har bir ko'pkarida uning nomini baland ko'tardi va Ziyodulla chavandoz degan yangi nomga erishishiga sababchi bo'ldi. Bu qissa juda mushohadali insonni o'ylashga undaydigan asardir. Bu qissadan shuni tushunish mumkinki insonlar bir-biriga doimo mehrli bo'lishsin, jonivorlardan insonlardan topmagan sadoqatni, vafoni qidirmasin. Hamma doimo bir-birini tinglay oladigan do'st bo'lishsin degan g'oya Tarlon ot obrazi orqali yoritib berilgan. Aslida, insonlardan topmagan sadoqatni jonzotlardan ya'ni otdan ham topish mumkin. U hech qachon sen qilgan yaxshilikka yomonlik bilan javob qaytarmaydi. U do'stlikning, sadoqatning qadriga yeta oladi. Tarlon - bu ot o'zbek xalqida eng yaxshi jonivorlardan biri sanaladi. [2:86] Ko'pkari o'yinida hamma o'z oti bilan musobaqada bellashadi. Ziyodulla chavandozning Tarlon oti hamma musobaqada g'oliblikni qo'lga kiritadi. Bu asarda Surxon vohasining tasviri yaqqol ko'zga tashlanadi. Surxondaryo bu polvonlar yurtidir. Asl chavandozlar yurti. Tog'ay Murodning bolaligi o'tgan yurti bu Surxondaryo bo'lib, o'z asarlarida Surxondaryo tabiat, haqiqiy Surxon odamlari tilga olingan. Tog'ay Murodning har bir asarida dialektizmlardan mahorat bilan foydalanilgan. Asl o'zbekona milliy asar desak mubolag'a bo'lmaydi. Tog'ay Murodning har bir yozgan asarini o'qish kerak, chunki unda millat, qadriyat degan tushunchalarni biz chuqur anglab yeta olamiz. O'z milliyligimizni bilmaslik - bu o'zligimizni bilmaslikdir. Shunday ekan millat qadriyati talqin qilingan asarlarni ko'plab o'qish, tahlil qilish va kerak bo'lsa o'zimiz ham shunday asarlar yaratishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tog'ay Murod, Ot kishnagan oqshom, qissa, Toshkent, Nurafshon-kitobta'minot, 2022, 176 b.
2. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Toshkent, O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2006.
3. www.ziyouz.com